



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТИИК НУУЗ

АСТА НУУЗ

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI**

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2023
1/2/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Y.S.ERGASHOV – f-m.f.d., dotsent.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Shirinova R.X. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **Z.A.PARDAYEV**

TOШKEHT – 2023

To‘xtayeva M. Imom Buxoriyning hadisshunoslik ilmidagi innovatsion maqomi.....	183
Ubaydullayeva S. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi o‘zaro bog‘liqlik tizimida xalqaro tuzilmalar.....	187
Usmonov D. «Atom fizikasi»ga oid laboratoriya ishlarini kompyuter texnologiyalari vositasida modellastirib bajarish metodikasi.....	192
Xayitova Y. Tibbiy OTMd biofizika fanini o‘qitish metodikasini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish	197
Xodjaboyeva Z. O‘zbek folklor musiqasi – tarbiya vositasi sifatida	200
Xoliqov A. Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim olish tizimini rivojlantirish	203
Xolmatov N. Voleybol sporti jamoadagi psixologik yaqinlikning omili sifatida	206
Xudayberganov R. Ratsional tafakkur shakllanishida tabiiy va sun‘iy tilning falsafiy-metodologik jihatlarni	210
Xudoyberdiyeva S. Ixtisoslik fanlardan o‘quv-uslubiy materiallarga qo‘yiladigan didaktik va uslubiy talablar	213
Haydarova R. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda matematika darsliklarining ahamiyati(1-sinf matematika darsligi misolida).....	216
Shermanov I. Biotexnologik ta’limning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va xususiyatlari.....	219
Shoxobutdinova D. Komizmning falsafiy talqini	222
Ergashev J. Kasb-hunar ta’limi jarayonida mustaqil ishlarni shakllanishiga oid turli yondashuvlar	224
Yakibova D. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish.....	227
Филология	
Абдураманова Д. Гармония психологического развития личности и писательского признания	230
Allamberganova P. Ocherk janrining o‘ziga xosligi	233
Boboyev T. Xalq og‘zaki she‘riy ijodi umuminsoniy va milliy-madaniy hodisa sifatida	236
Bo‘riyeva N. Ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida shaxs konseptining verballashuvini qiyosiy tahlil qilish	239
Valieva M. Xitoy tili sintaksisiga xos ilk terminologiyasi	243
Jumayev I. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida so‘z qudrati haqida mulohazalar.....	246
Жумаева Ф. Эмиграционный трансформационный потенциал числительного “Один”	249
Karamatova Z. Jahon va o‘zbek she‘riyatida elegiya hamda marsiya janrining tipologik xususiyatlari	253
Kayumova M. Haldun Taner dramalarida g‘oyaviy-estetik mazmunning badiiy konflikt bilan uyg‘unligi	255
Qurbonnazarova N., Jumayeva M. O‘zbek marosim folklorining til xususiyatlari.....	259
Samadova S. Ingliz tilida temporal ma’noli birliklarning morfologik va sintaktik usullar orqali ifodalanishi	262
Sanakulov Z. Atoqli otlar va turdosh otlar qiyosiy tahlili (nemis tili misolida)	266
Xakimova N. Principles of creating the creative style in english-uzbek translation of detective works	270
Xalimova F. Poetik idiostilning kognitiv-diskursiv belgilari	273
Hamraqulova F. Yumorlar madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiyani oshiruvchi vosita sifatida	276
Choriyeva A. Aleksandr Arkadevich Faynberg xotirasi abadiy barhayot.....	279
Sherboev N. Savdo xodimlari nutqiga doir nazariy qarashlar tahlili.....	281
Yarashev J., Uzakova M. Abu Nasr Farobiyning “Musiqqa uyg‘unligi haqida” asari tahlili.....	284



Zayniddin SANAKULOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: z.sanakulov@cspi.uz

O'zDJTU professori, f.f.n. X.Raximov taqrizi asosida

COMPARATIVE ANALYSIS OF PROPER AND COMMON NAMES (BY THE EXAMPLE OF THE GERMAN LANGUAGE)

Annotation

This article was written within the framework of traditional research theories of linguistics, within which a comparative analysis of German proper names and common nouns was carried out based on the scientific findings of a number of linguists. Also, on the material of the German language, the semantic features of common nouns and proper names are revealed.

Key words: Common noun, proper name, onomastic literature, reference.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИМЕН СОБСТВЕННЫХ И НАРИТСАТЕЛЬНЫХ (НА ПРИМЕРЕ НЕМЕСКОГО ЯЗЫКА)

Аннотация

Данная статья написана в рамках традиционных исследовательских теорий языкознания, в рамках которых был проведен сравнительный анализ немецких имен собственных и нарицательных на основе научных выводов ряда лингвистов. Также на материале немецкого языка выявляются семантические особенности имен нарицательных и собственных.

Ключевые слова: Имя существительное нарицательное, имя собственное, ономастическая литература, референция.

ATOQLI OTLAR VA TURDOSH OTLAR QIYOSIY TAHLILI (NEMIS TILI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqola tilshunoslikning an'anaviy tadqiqot nazariyalari doirasida yozilgan bo'lib, unda nemis tili turdosh va atoqli otlarining qiyosiy tahlili qator tilshunoslar ilmiy xulosalari asosida olib borilgan. Shuningdek, turdosh va atoqli otlarning semantik xususiyatlari nemis tili materialida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Atoqli otlar, turdosh otlar, onomastik adabiyot, referentsiya.

Kirish. Atoqli va turdosh otlar farqlari borasida fikr yuritgan V.Flaysler yozadiki, "Atoqli ot (AO) va turdosh ot (TO) o'rtasida nafaqat ular (miqdor) darajasida, balki funktsiyasida ham asosiy farq mavjud: TOLar obyektni xarakterlasa (tavsiflasa), AOLar ularni identifikatsiyalaydi"[7]. Aynan AO va TOLar o'rtasidagi muhim funksional farqlar shu darajada ko'pki, ularni ba'zan alohida so'z turkumlari ekanligi haqida qarashlar ham ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ular o'rtasida qator grammatik differentsial jihatlar ham mavjud.



Asosiy qism. AO va TO orasida muayyan o'xshashliklar mavjud: ular nolisaniy obyektlarga ishora etishidan tashqari ularda bir xil grammatik xususiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ular tashqi tomondan ham juda o'xshash. Ba'zan ular o'z turini almashishi mumkinligi sababli ularni aniq farqlash qiyinchilik tug'diradi: *Schäfer* (cho'pon) ham ism, ham cho'pon kasbini, *Neustadt* (yangi shahar) shaharning biror yangi qismini yoki shahar nomini (mas., o'zbek tilida Yangi Sergeli va b.) ham anglatishi mumkin. Bu kabi bog'liqlik diaxron aspektida ham ko'zga tashlanadi. Qator AOLar tarixan TOLardan kelib chiqqan. Ular nafaqat toponimlar (*Hauptstraße*-bosh ko'cha, *Feldberg*-dala tog') yoki ismlar (*Schäfer*-cho'pon, *Weber*-tuquvchi), balki tarixan

TO bo'lsa-da buni hozirda bilib bo'lmaydigan (*Wolfram* 'Wolf-bo'ri + 'Rabe'-quzg'un) yoki ushbu TO shevadani yo o'zga tillardan o'zlashtirilgan AO (*Köln* < lot. *koloniya*, *Vera* < rus. *ishonch*, *Theodor* < grek. *Theodōros* 'Xudoning in'omi'). Manbalarda yozilishicha, nemis tilida AOLar yasallishida TOLar eng muhim manba hisoblanadi. Ular ba'zan sifat (*Jung-yosh*, *Braun-jigar rang* kabi familiya yoki *Hartlieb* < 'qattiq' + 'sevimli' kabi laqab) yoki erkin harflar birikmasi (*Fa*, *Maoam*, *Tchibo*, *Kodak*) bo'lishi ham mumkin.

Yuqorida AO va TO qator o'xshash jihatlarga egaligi tilga olingan bo'lsa-da, ular orasida aniq farqlar ham ko'zga tashlanadi [4].

Referentsiyalash darajasi. Atoqli ot uni ifodalagan so'z leksik ma'nosini anglatmagan holda yoki leksik ma'nosidan mustaqil holda bevosita bitta/yagona obyektlarni, turdosh ot esa o'zi ifodalayotgan tushuncha leksik ma'nosini bildirishga xizmat qiladi.

Ma'no deganda muayyan so'z, shuningdek, leksema (lug'atga kiritilgan)ning leksik ma'nosi nazarda tutiladi. Har bir TO shunaqa ma'noga egadir. Ammo ular ko'p ma'noli ham bo'ladi (bunday ma'no kontekstga bog'liq bo'ladi) va muayyan ifoda jarayonlarida yana boshqa okkazional ma'nolar ham kuzatiladi[3].



1-rasm. a) Turdosh va b) atoqli otlarning semiotik atash modellari.

1-rasmda tasvirlanganidek (ushbu jihat chizib qo'yilgan) AOLarda leksik ma'no mavjud emas. Buni F. Debus quyidagicha ifodalaydi: “- Ifoda (*signifiant*) ham turdosh, ham atqoli otlarda belgining moddiy tomoni sanaladi: u ot hatto harf yoki tovush orfali ifodalangan, shuningdek, agar imo-ishora til haqida so'z borsa, imo-ishora qilingan bo'lsa. Obyekt (denotat, referent, ism/nom sohibi) esa so'zlovchi ism bilan murojaat qiluvchi ekstralingvistik, nolisoniy predmetdir”[3].

TO va AOLarning farqli referensilash imkoniyatlari, ya'ni ularning ekstralingvistik obyekt/referentga ishora qilishi eng muhim aspekt sanaladi. Yuqorida keltirilgan 1-rasmda TO va ATlarning asosiy farqlar ko'rinib turibdiki, uzoq chiziqlar tegishli ot turi muayyan xususiyatga ega emasligini, ya'ni uchburchak qismlari o'rtasida nafaol munosabatni bildirsa, uzuqsiz chiziqlar uning aksini ifodalaydi. Shuningdek, ushbu rasm a)da ko'rsatilganidek, TOLarning ma'nosi/semantikasini hamma biladi, mas., *Hund*, ya'ni *it* “vovillaydigan, huradigan, tishlaydigan to'rt ayoqli jonivor”. Tolar muayyan “ma'noviy maydon”da birlashuvchi (ushbu kontent bilan bog'liq mezonlarga javob beradigan) obyektlar sinfi, turini ifodalashi yuqoridagi misolda o'z aksini topadi: “*it*” – barcha “vovillaydigan, huradigan, tishlaydigan jonivor”ni anglatadi. TO ma'nosini bilish orqaligina (1-rasmdagi a) da berilgan to'g'ri uzuqsiz o'q/chiziqqa qarang) ifodalangan ma'noviy sinfga referensiya, ishora qilish mumkin. Shuningdek, agar TO yakka o'zi aniq ko'rsatilgan bo'lsa, bunday holda yagona obyektga referensiya, ishora qilinadi. Sof ifoda orqali obyektga to'g'ridan-to'g'ri ishora qilish imkonsizdir. Chapdagi ikkitomonlama strelka “*it*” tasavvuri har doim bevosita uning ifoda, nomi yordamida “ro'yobga chiqariladi”: itni ko'rishimiz bilan uni nomlashimiz, atashimiz mumkin. Aksincha, o'sha itning ismi, otini atay olmaymiz, bu uchun uning otini bizga oldinroq boshqa bir shaxs aytgan bo'lishi talab etiladi. Odatda, ko'pchilikda AOLarga qarganda TO haqida kengroq “bilim” bo'ladi, shuning uchun biz TO ma'nosi haqida emas, balki AO obyekt haqida ko'proq savol beramiz. Mazkur xususiyatlar AOLarda tubdan farq qilishini 1-rasmdan bilishimiz mumkin. Jumladan, AOLarda aniq bir obyektga faqat moddiy (fonik, grafik) ifoda orqali munosabat bo'ladi: diaxronik nuqtai nazaridan ma'noviy “qavat, qoplam”dan xoli bo'ladi (diaxronik jihatdan **a) TO > b) AO** tarzda shakllanadi) – bunda mono- va bevosita referensiya kuzatiladi. Lekin ba'zan “*shaffof*” ismlarda leksik-semantik tuzilma saqlanib qolganidek tuyuladi, mas., nemischa familiya nomi *Schäfer*, ya'ni *Podachi*. Bu erda ba'zi odamlar qatori diaxronik ma'noni bog'lashimiz mumkin bo'lsa-da, aslida, ushbu ism obyekt (podachi)ga umuman (ortiq) ishora qilmaydi, obyekt ma'nosi bilan bog'liq munosabatni ifodalamaydi. Shu sababdan 1-rasm b)da o'ng o'q nafaqat uzoqli, balki ustidan chizib ham qo'yilgan. Agar biz janob *Schäfer* – *Podachi/Cho'ponni* yaylovdan qidirsak, bu xato yondashuv bo'lar edi. Chunki nemis tilida *Schäfer-Cho'pon* eng keng tarqalgan familiya, lekin u TO sifatida juda kam uchraydi va *Müller-Tegirmonchi* va *Meier-Fermer/G'isht teurvchi usta/Sut firmasi soxibi* kabi so'zlar bilan bir qatorda kontekstdan tashqarida asosan ism sifatida qabul qilinadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, agar janob *Schäfer-Cho'ponning* kasbi hisobchi yoki informatik bo'lsa ham ajablanmasak bo'ladi. Ba'zi “*shaffof*” ismlar tabassum qilishimizga sabab bo'ladi: mas., advokatning ismi *Mörder-Qotil*, qassobning ismi *Hunger-Ochlik* yoki yashillar partiyasining rahbari *Roth-Qizil* ismli bo'lsa. O'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, barcha “*shaffof*” ismlar ham TOLardan kelib chiqmagan, chunki ba'zan xalq etimologiyasi ham bunga sabab bo'ladi: mas., *Hunger* – *Ungar (vengr)*, *Augustin* esa *Augustin (Avgustin)* so'zlaridan kelib chiqqan. Xulosa qilib aytganda, “AOLning vazifasi (muayyan obyektga) ishora, murojaat qilishdir, bunda unga biror semantik xususiyat kerak bo'lmaydi – [D]ie alleinige

Funktion des Eigennamens ist, zu referieren und dass er dazu kein einziges semantisches Merkmal braucht”[11].

Nemis tilshunoslarning TO va ATlar qiyosi yoritilgan adabiyotlari tahlil etilgach, ularning yana qator farqli jihatlari yanada ko'zga tashlandi. Jumladan, bunda intensiya va ekstensiya ahamiyatli rol o'ynaydi. “Bir lingvistik ifoda orqali murojaat, ishora qilish mumkin bo'lgan predmetlar to'plami ekstensiya (yoki denotat) va konseptual mazmun esa intensiya deb ataladi[15]. Leksik ma'no (intensiya) qanchalik keng bo'lsa, ekstensiya shunchalik tor bo'ladi va aksincha. Shu sababli TO “*Hund-it*” nisbatan tor intensiya (dumini silkilatuvchi to'rt oyoqli uy hayvoni)ga va keng ekstensiya (shu turdagi itning har qanday namunasi)ga ega bo'lsa, TO *Schwarzer Norwegischer Elchhund-Qora Norvegiya los iti* (it zoti) keng intensiya va tor ekstensiyaga ega. Demak, AOLarda intensional ma'no umuman mavjud emasligi sababli ular maksimal ekstensional hisoblanadi. Nemis olimi Gerhardt bu borada to'xtalib “bunga o'ta semantik ehtiyoj, zarurat yetishmasligi”ni tilga olib, “Chunki hamma AOLar bir xil ma'noni anglatadi: bu bizning dunyomizdagi yagona narsadir” deb yozadi[7].

TO va AOLar o'rtasidagi qator farqlarga qaramasdan ba'zi o'xshashliklar ham uchrashi manbalar tahlilidan ma'lum bo'ldi. Jumladan, qo'shimcha individual va shaxslararo (ijtimoiy, madaniy) ma'noviy bog'lanish, assotsiatsiyalar sifatida konnotativ ma'no maydonida TO va AOLar o'rtasida farqlar ko'zga tashlanmaydi; ular ko'pincha ta'sirchan xarakterga ega bo'lib, referens obyektiga nisbatan (aldamchi) tasavvur va qarashlar, tajriba va kechinmalardan kelib chiqadi. Misol uchun, kimnidir *it* qopgan bo'lsa, u uchun *it* boshqa konnotativ ma'noni hamda yana bir “*itni uy hayvoni*” deb hisoblaydigan odam uchun esa yana boshqa konnotativ ma'noni anglatadi, ularning *it* haqidagi tasavvurlari farqli bo'ladi. Yoki *Bertani* yoqtiradigan, uni tanimaydigan va uni yoqtirmaydigan uchala shaxs uchun konnotativ ma'noda uch xil bo'lishi ham sir emas. *Osvensim* (tarixdagi fashistik konslager), *Chernobel*, *11 sentyabr* kabi AOLar ijtimoiy qatlam uchun konnotativ ma'noni ifodalaydi.

Sohaga oid tadqiqotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, ma'lum bir TOLarni AOLardan ajratib olishda muammolar uchraydi. Jumladan, *Grippe-gripp*, *Krebs-rak*, *Gicht-podagra* kabi kasallik nomlari aslida nomlar hamda ko'plik shakliga ega emas bo'lsa-da, ular AOLar emasligi o'z-o'zidan tushunarli. Kasallik nomlari mavhum otlar qatoriga kiradi, shu sababdan ko'plik shakliga ega emas (xuddi *Trauer-motam*, *Fleiß-mehnatsevarlik*, *Verstand-idrok*, *fahm* so'zlari kabi). Bundan tashqari hafta kunlari, oy hamda bayram nomlari ham Tolar sanaladi: *Montag-dushanba*, *Mai-may*, *Ostern-pasxa* va *Weihnachten-rojdestvo* kabi ma'lum vaqt birliklari vaqti-vaqti bilan takrorlanadi. Shuning uchun ular Tolar qatoriga kiritiladi. Shunday bo'lsa-da, aniq vaqt yoki davrni o'ziga xos xususiyatlari va aniq belgilangan nuqtasini ifodalovchi vaqt nomlari (xrononimlar) ham mavjud: *die Steinzeit-tosh davri*, *das Mittelalter-O'rta asrlar*.

Yuqoridagi muammalar yoritilgan asarlarda tadqiqotchilarning yozishicha, monosemantika yoki dunyoda yolg'ich uchrovchi “predmet”lar deb ataluvchi va yakka denotatga ega *Sonne-quyosh*, *Mond-oy*, *Erde-yer*, *Paradies-jannat*, *Hölle-do'zax* kabi so'zlar otlarning qaysi turiga borasida bahsli fikrlar qayd etilsa-da, D.Nyubling va b. bunday otlarni TO deb hisoblaydi: chunki bu so'zlarning har biri mazmun jihatdan aniq ta'riflanishi mumkin va ular muayyan semantik belgiga ega[13]. Leys esa ularni “monosemantik emas, balki ko'proq monoreferensial TO deb atashni taklif etadi” [11]. Biz ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaymiz, chunki bu kabi monosemantikalar o'z ko'plik shaklini ham odatiy TO kabi yasaydi va bu orqali AOLar ajralib turadi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.**Monosemantik va atoqli otlarning ko'plik qo'shimchasi qiyosi****Monosemantikalar****Birlik***(die) Sonne**(der) Mond***Ko'plik***die Sonnen**die Monde***Atoqli otlar****Birlik***(die) Anna**(der) Simon***Ko'plik***die Annas**die Simons*

TO yoki AOLardan biriga tegishlilikni aniqlashdagi muammasalar boshqa so'zlarda ham uchraydi. Jumladan, o'z tarkibida morfologik jihatdan AO ega bo'lgan, lekin ular kabi vazifani bajarmaydigan xalq va qabila nomlari ham Tolar hisblanadi: *Engländer-angliyaliklar*, *Polen-polshaliklar*, *Türken-turklar*. *England-Angliya*, *Polen-Polsha* va *Türkei-Turkiya* so'zlari AO sanaladi, lekin u erda istiqomad qiluvchi xalq, elat nomlari ham funksional, ham shaklan xuddi TOLarga o'xshaydi (qiyos. *ein/der Engländer - die Engländer*)[4]. Ularni *heißen-deb atalmoq/nomlanmoq* fe'lini qo'llash orqali aniqlab olish pragmatik echim sifaida taklif etiladi: *Dieser Mann heißt *Engländer (*Pole, *Türke)* shaklida qo'llash noto'g'ri bo'lardi (*dieses Land heißt Polen, Türkei* shaklida qo'llash to'g'ri sanaladi).

Yuqorida TO va AOLar farqli va o'xshash jihatlari ilmiy xulosalar bilan asoslangan bo'lsa-da, ular onomastik adabiyotga ham tegishli deb aytish asossiz fikr sanalishini sohaga oid adabiyotlar tahlili ko'rsatadi. Onomastik adabiyotda terminlar ma'nosi, semantikasi, mazmuni, referensiyasi, konnotatsiya va dennotatsiyasi va shu k. borasida terminalogik chalkashliklar ko'zga tashlanishi, ushbu terminlarni aniq sharhlash, so'ngra ularni bir xilda va imkon qadar ularning omonim va sinonim variantlaridan voz kechish va ularni lingvistik me'yorlar doirasida qo'llash, qisqa aytganda, ularni tartibga solish zarurati borligi, ammo bunga e'tibor qaratilmayotganligi qayd etiladi. Shu tarzda, ismlarning sof referens potentsiyaali ko'pincha ularning ma'nosi bilan tenglashtiriladi, ya'ni qator izlanishlarda ismlar

ma'nosi yoki "individual ma'nolar" haqida so'z boradi[8]. TO va AO ma'nosini o'rgangan nemis olimi Ye.Hanzakning yozishicha, ular "turli xil ma'nolar"ga egadir va ismlarning yangi "egasi" paydo bo'lishi bilan ismlar ma'nosi ham o'zgaradi yoki bu jarayonda ko'p sonli omonimlar qatori namoyon bo'ladi[8]. Shuningdek, dennotatsiya va konnotatsiya terminlari bunda ko'pincha lingvistik nuqtai nazardan emas balki, falsafiy an'analardan kelib chiqib tushuniladi. Bundan tashqari, ko'pincha belgi, xususiyatlarni o'z ichiga olgan aniq referens obyekti ismlar ma'nosi sifatida qaralishi hamda bir necha sathlarning chalkashtirilishi qator tilshunoslar tomonidan salbiy tanqid qilinadi[9]. Leysning fikriga qo'shilgan holda ismlarni lingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish talab etiladi: "*Suqrot obyekti shartli yoki zaruriy sifatlarini bilish – ushbu ismning qo'llash uchun zarur shart sanalmaydi. Demak, bu sifatlarining hech biri Suqrot ismining o'ziga xos ma'noviy belgilarini ifodalay olmaydi. Darvoqe, Suqrot haqidagi bilimlarimiz tarix davomida butunlay o'zgarishi, hattoki, Suqrot aslida mavjud bo'lmaganligi ma'lum bo'lishi mumkin. Shunda ham bu ism o'z referensiyasini yo'qotmaydi. Shuningdek, obyekti faqat atributlariga o'zgaradi, lekin ushbu ismning referensiyasi o'zgarimasdan qoladi*" [11].

Nemis TO va AOLari farqli va o'xshash tomonlari yoritilgan qator adabiyotlar tahlili hamda yuqorida keltirilgan xulosalarga tayanib ushbu ot turlari o'rtasidagi semantik munosabatni quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.**Turdosh va atoqli otlar o'rtasidagi farqli va mushtarak semantik jihatlar**

	Turdosh ot	Atoqli ot (ism)
Etimologik ma'no	+	+
Leksik ma'no/semantika	+	-
Intensiya	turli xil	minimum
Ekstensiya	intensiyaning aksi	maksimal
Konnotatsiya	+	+
Kategoriya oid ma'lumotlar (rod, so'z turkumi, ot sinfi/turi...)	+	(+)

Agar biz *Mayer, Bello, Freiburg, Türkei* kabi so'zlarni eshitsak, ularni AOLarga hamda AO turlari: familiya nomi, it nomi, shahar nomi, davlat nomi kabi sinflarga kiritamiz. AO turlari haqidagi bu bilim hayratlanarli darajada ishonchli, bu orqali esa AOLar [ot], [AO], [AO turi], [turlanish turi], [rod]

kabi kategorik (semantik emas) ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, bir ko'ppakni *Juliane, Köln* yoki *Campari* deb atash ismlar funksiyasiga zid emas (2-jadvaldagi qavslari qo'shuv belgisi "(+)" shu sababdan).

ADABIYOTLAR

1. Blunar V. Zum Prozess der Onymisierung // Eichler/Walther, 1980. Bd. 1, – S. 50-57.; Hoffmann G. Namen und Namengebung in der Astronomie. // Eichler et al. 1996, – S. 1627-1637.
2. Debus F. Aspekte zum Verhältnis Name - Wort. – Steger. 1977. – S. 3-25.
3. Debus F. Namen-Bedeutsamkeit und Namen-Inhalt. Zur Semantik der nomina propria // Kleinere Schriften, Bd. 3. – Hildesheim. 2007. – S. 447-455.
4. Fleischer W. Namen als sprachliche Zeichen und ihr besonderer sprachlicher Charakter // Namenforschung heute. Ihre Ergebnisse und Aufgaben in der DDR. – Berlin: –S. 7-37.
5. Fleischer W. Zu den Prozessen der Motivation und Semantisierung bei den Eigennamen. Vorschläge zur Terminologi // Christoph et al., 1984. – S. 59-61.
6. Fleischer W. Zum Verhältnis von Name und Appellativum im Deutschen // Wissenschaftliche Zeitschrift der Karl-Marx-Universität Leipzig. – Leipzig: 1964. –S. 377.
7. Gerhardt D. Über die Stellung der Namen im lexikalischen System. BNF 1, 1949-50, - S. 5.
8. Hansack E. Das Wesen des Namens // Brendler/Brendler, 2004.– S. 61.
9. Kleiber G. Problèmes de référence. Descriptions définies et noms propres. – Paris, 1981.
10. Koß G. Namenforschung. Eine Einführung in die Onomastik. – Tübingen. 2002.
11. Leys O. Was ist ein Eigenname? // Debus/Seibicke. 1989. –S. 143-165.
12. Lötscher A. Von Ajax bis Xerox. Ein Lexikon der Produktnamen. – Zürich. 1995.

-
13. Nübling D., Fahlbusch F., Heuser R. Namen. Eine Einführung in die Onomastik. 2., überarbeitete und erweiterte Auflage. – Tübingen: Narr Francke Attempto Verlag. 2015. – S. 35.
 14. Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen. 2002
 15. Steinbach M. Semantik // Einführung in die germanistische Linguistik. – Stuttgart/Weimar, 2002. – S. 162-207.
 16. Vater H. Eigennamen und Gattungsbezeichnungen // Muttersprache 75. 1965. – S. 207-213.
 17. Wimmer R. Die Bedeutung des Eigennamens. // Debus/Seibicke, 1989. –S. 125-142.